



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejankor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarning transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

O‘ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

ISSUES OF TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Zaxirova Gulnora O‘zMU, Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida katta o‘qituvchisi

Shavkatova Nozima O‘tkir qizi Iqtisodiyot yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada xalqaro miqyosda turizmning tutgan o‘rni va rivojlanish tendensiyasi haqida ma’lumotlar berilgan. Shu o‘rinda O‘zbekistonda mavjud salohiyatdan foydalanish imkoniyatlar bilan birgalikda turizmni rivojlantirishdagi asosiy muammolar, hududlar kesimidagi tahlili, turizm infratuzilmasini rivojlantirish kabi muammolarni hal qilish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston turizmi, turizm infratuzilmasi, sayyohlik xizmatlari sifati, turizm marketingi, madaniy-tarixiy meros, turizm rivojlanishi, turizm strategiyasi, turizm to‘siqlari.

В данной статье представлена информация о роли туризма на международном уровне и тенденциях его развития. Также рассмотрены возможности использования существующего потенциала в Узбекистане, проанализированы основные проблемы развития туризма, проведён анализ в разрезе регионов и предложены меры по решению вопросов, связанных с развитием туристической инфраструктуры.

Ключевые слова: туризм Узбекистана, туристическая инфраструктура, качество туристических услуг, маркетинг туризма, культурно-историческое наследие, развитие туризма, туристическая стратегия, барьеры туризма.

This article provides information on the role of tourism at the international level and the trends in its development. It also examines the possibilities of utilizing the existing potential in Uzbekistan, analyzes the main problems in tourism development, presents a regional analysis, and proposes measures to address issues related to the development of tourism infrastructure.

Keywords: Uzbekistan tourism, tourism infrastructure, quality of tourist services, tourism marketing, cultural-historical heritage, tourism development, tourism strategy, tourism barriers.

Turizm bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng muhim va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. BMT Jahon turizm tashkiloti (UN Tourism) ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda xalqaro sayyohlar soni 1,3 milliardga yetib, pandemiyagacha bo‘lgan darajaning taxminan 89 foizini tashkil etgan. 2024-yilda esa bu ko‘rsatkich to‘liq tiklanib, 1,47 milliardga yetgan va 2019-yildagi darajaga to‘liq qaytgan. Turizm eksport tushumlari (sayohat xizmatlari va yo‘lovchi tashish) 2023-yilda 1,8 trillion AQSH dollariga yetib, pandemiyadan keyin deyarli to‘liq tiklangan. Turizmning global yalpi ichki mahsulotga qo‘shgan hissasi 2023-yilda 3 foiz atrofida bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bilvosita va induksiya ta’siri orqali trillionlab dollarlik iqtisodiy faollik yaratmoqda. Bu soha millionlab ish o‘rinlarini ta’minlaydi, infratuzilmani rivojlantiradi va madaniy almashinuvni kuchaytiradi. Eng ko‘p sayyoh qabul qiluvchi davlatlar orasida Fransiya (100 milliondan ortiq), Ispaniya va AQSH yetakchilik qilmoqda. [1]

O‘zbekiston ham jahonning eng qadimiy sivilizatsiya markazlaridan biri sifatida boy madaniy-tarixiy merosga, noyob me’moriy yodgorliklarga, qadimiy shaharlar – Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi jahon miqyosida tan olingan maskanlarga ega. Shu bilan birga, Farg‘ona vodiysining yashil manzaralari, Chimyon va Nurota tog‘larining tabiiy go‘zalligi, Qizilqum va Qoraqum cho‘llarining o‘ziga xos jozibasi mamlakatni turizm nuqtai nazaridan juda jozibador qiladi. Biroq, bu

ulkan salohiyatga qaramay, O‘zbekiston turizmi hali ham o‘z imkoniyatlarining faqat bir qismini ishga solmoqda.

Turizm sohasining rivojlanishiga eng katta to‘siq bo‘lib infratuzilmaning yetarli darajada modernizatsiya qilinmaganligi, aeroportlar, yo‘llar va mehmonxona tarmog‘ining sifat va son jihatidan cheklanganligi, shuningdek, transport xizmatlari va umumiy xizmat ko‘rsatish darajasining xalqaro standartlarga mos kelmasligi turibdi. Bundan tashqari, samarali turizm marketingi va xalqaro PR-strategiyasining yetishmasligi tufayli O‘zbekiston ko‘plab xorijiy sayyohlar uchun hali ham “kashf etilmagan” yoki “qiyin yetib boriladigan” manzil sifatida qolmoqda. Maqsad – mavjud salohiyatdan to‘liq foydalangan holda turizmni mamlakat iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylantirish imkoniyatlarini ochib berishdir.


O‘zbekiston turizmining rivojlanishidagi muammolarni tahlil qilishda xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Xorijiy olimlardan D. Airey va M. Shackley o‘z tadqiqotlarida O‘zbekistonda mustaqillikdan keyingi davrda turizm sohasidagi o‘zgarishlarni, asosiy kuchli va zaif tomonlarni o‘rganib, infratuzilmani modernizatsiya qilish, davlat siyosati orqali qo‘llab-quvvatlash va samarali marketing zarurligini ta’kidlaganlar. [2] Shu kabi, K. Kantarci “Perceptions of foreign investors on the tourism market in Central Asia including Kyrgyzstan, Kazakhstan, Uzbekistan, Turkmenistan” tadqiqotida xorijiy investorlarning qarashlari asosida O‘zbekistonda transport infratuzilmasining zaifligi, vizaviy to‘siqlar va marketing strategiyalarining yetishmasligini asosiy to‘siqlar sifatida ko‘rsatgan. [3]

O‘zbek olimlari orasida B. Safarov turli yillarda, xususan 2016-yildan keyingi ishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli platformalarning turizmga ta’sirini chuqur o‘rganib, infratuzilma va marketingdagi kamchiliklarni bartaraf etishda raqamlashtirishning muhimligini ta’kidlagan. [4] Shu bilan birga, N. Arabov va D. Nasimov “Shaping the future of Uzbekistan’s tourism: An in-depth analysis of infrastructure influence and strategic planning” bo‘yicha izlanishlarida turizm infratuzilmasining hududiy muvozanat va xorijiy sayyohlar oqimini oshirishdagi rolini tahlil qilib, strategik rejalashtirish va modernizatsiya zarurligini asoslab berganlar. [5]

Ushbu tadqiqotlar birgalikda shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston turizmining boy salohiyatiga qaramay, xorijiy sayyohlar oqimini cheklab turgan asosiy omillar – infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, transport va xizmat ko‘rsatish sifatining pastligi hamda samarali marketing va xalqaro PR-strategiyasining yo‘qligi bo‘lib qolmoqda. Xorijiy va mahalliy olimlarning xulosalari ushbu to‘siqlarni bartaraf etish uchun davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro standartlarga mos xizmat sifatini oshirish zarurligini tasdiqlaydi.

O‘zbekiston turizm sohasida so‘nggi yillarda sezilarli yutuqlarga erishmoqda va jahon miqyosida eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri sifatida tan olinmoqda. 2019-yilda xorijiy sayyohlar soni 6,7 million atrofida bo‘lgan bo‘lsa, pandemiya ta’sirida keskin pasayganidan so‘ng, 2023-yilda 6,6 millionga, 2024-yilda esa 8,2 millionga yetgan (ba’zi manbalarda 10 milliongacha baholanmoqda). Turizm xizmatlari eksporti 2023-yilda 2,14 milliard dollardan 2024-yilda 3,52 milliard dollarga oshgan. Bu o‘lish vizaviy tartibni soddalashtirish (90 dan ortiq davlat uchun vizasiz rejim), aeroportlar va mehmonxonalar modernizatsiyasi, xalqaro marketing kampaniyalari (jumladan, UNWTO bilan hamkorlik, Xiva – Islom dunyosi turizm poytaxti 2024) va “O‘zbekiston – turizm yillari” dasturlari tufayli amalga oshirilmog‘da. [6] Jahon iqtisodiy forumi O‘zbekistonni turizmni rivojlantirish bo‘yicha dunyoning eng faol mamlakati deb topgan. Biroq, mamlakatning ulkan madaniy-tarixiy salohiyatiga (Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi jahon merosi obidalari) qaramay, xorijiy sayyohlarning aksariyati qo‘shni davlatlar va MDH mintaqasidan kelmoqda, uzoq masofali sayyohlar ulushi hali pastligicha qolmoqda. Bu holat infratuzilma, transport sifati va global marketingdagi mavjud muammolarni yanada yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Quyida mamlakat hududlari kesimida turistlar soni va tarixiy yodgorliklar miqdori taqqoslangan. Bu turizm va madaniy meros o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi.



1-rasm. 2025-yilda hududlar kesimida turistlar soni va tarixiy yodgorliklar taqsimoti [7]

Eng ko‘p turistlar Samarqand va Buxoroga to‘g‘ri keladi va bu hududlarda yodgorliklar ham ko‘p. Toshkent shahri va Xorazmda ham turistlar soni yuqori. Qolgan hududlarda ko‘rsatkichlar pastroq. Umuman, yodgorliklar ko‘pligi turizm rivojiga ijobiy ta‘sir qilgani ko‘rinadi.

O‘zbekistonda turizm industriyasida bir qancha muammolar mavjud bo‘lib, ular xorijiy sayyohlar oqimini cheklab, mamlakatning boy madaniy-tarixiy salohiyatidan to‘liq foydalanishga xalaqit bermoqda. 2025-yilda tashrif buyurgan turistlarning asosiy qismi (Samarqand – 3,2 mln, Buxoro – 2,8 mln, Toshkent shahri – 1,55 mln) [8] faqat uchta asosiy markazga to‘g‘ri keladi. Bu holat turizmning hududlar bo‘yicha keskin nomuvozanatligini yaqqol ko‘rsatadi.

Eng katta muammo — turizm infratuzilmasining hududlar bo‘yicha teng taqsimlanmaganligidir. Samarqand, Buxoro va Toshkentda turistlar soni yuqori bo‘lsa-da, Qoraqalpog‘iston (220 ming), Sirdaryo (80 ming), Toshkent viloyati (380 ming) va Navoiy (150 ming) kabi hududlarda turist oqimi juda past [9]. Natijada, bu viloyatlarning noyob tabiiy va tarixiy obidalar (Moynaq, Zomin, Sarmishsoy, Orol dengizi atrofi) deyarli foydalanilmay qolmoqda. Ichki transport aloqasi zaifligi, mehmonxona va xizmat ko‘rsatish infratuzilmasining yetishmasligi sayyohlarning ushbu hududlarga borishini qiyinlashtirmoqda.

Keyingi muhim to‘siq — xizmat ko‘rsatish sifati va kadrlar tayyorligining pastligi. Diagrammada ko‘rinib turganidek, Farg‘ona vodiysi (Andijon 170 ming, Namangan 150 ming, Farg‘ona 300 ming) va Surxondaryo (350 ming) kabi hududlarda turist soni nisbatan past. Bu yerlarda ingliz va boshqa xorijiy tillarda xizmat ko‘rsatish, raqamli navigatsiya, infomarkazlar va zamonaviy qulayliklar yetarli emas. Natijada, uzoq masofali sayyohlar (Yevropa, AQSh, Sharqiy Osiyo) bu hududlarni tanlamaydi va asosan “Oltin halqa” yo‘nalishida qolib ketadi.

Samarali marketing va turizm mahsulotlarining diversifikatsiya qilinmaganligi ham muhim muammolardan. Diagrammada tarixiy yodgorliklar soni yuqori bo‘lgan hududlar (Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo)da ham turist oqimi tarixiy obidalar soniga mutanosib emas. Bu esa O‘zbekiston turizmining hali ham faqat madaniy-tarixiy turizmga asoslanganligini va ekologik, tog‘-

turizm, cho‘l-turizm, gastronomik va tibbiy turizm kabi yangi yo‘nalishlarni yetarli darajada rivojlantirmaganligini ko‘rsatadi.

Ushbu muammolar hududiy nomuvozanatni yanada chuqurlashtirib, mamlakatning umumiy turizm salohiyatidan to‘liq foydalana olmaslikka olib kelmoqda. Infratuzilmani hududlar bo‘yicha muvozanatli rivojlantirish, xizmat sifatini oshirish, yangi turizm mahsulotlarini yaratish va global marketingni kuchaytirish orqali O‘zbekiston turizmini nafaqat uchta markazga, balki butun mamlakat bo‘ylab rivojlantirish mumkin.

Hududiy nomuvozanatni bartaraf etish uchun quyidagi tizimli takliflarni amalga oshirish zarur.

Birinchidan, 2026–2030 yillarga mo‘ljallangan “Hududlar bo‘yicha turizmni rivojlantirish dasturi”ni qabul qilib, har bir viloyat uchun alohida “Turizm master-plani” ishlab chiqish lozim. Bu doirada Samarqand, Buxoro va Toshkentdagi yuqori yuklamani kamaytirish bilan birga, Qoraqalpog‘iston, Navoiy, Farg‘ona vodiysi va Sirdaryoda ekologik, gastronomik va tog‘ turizmini ustuvor yo‘nalish sifatida rivojlantirish kerak.

Ikkinchidan, infratuzilmani tez modernizatsiya qilish zarur. Har bir viloyat markazidan qulay transport aloqasini yo‘lga qo‘yish, mehmonxonalar sonini ikki baravar oshirish va xususiy mehmon uylari tizimini qo‘llab-quvvatlash lozim. Butun mamlakat bo‘ylab Wi-Fi, raqamli navigatsiya va infomarkazlar tarmog‘ini yaratish ham muhim. Xizmat sifatini oshirish maqsadida har viloyatda turizm o‘quv markazlarini ochish, xodimlar uchun ingliz va boshqa xorijiy tillarida bepul kurslar tashkil etish va xizmat sifati monitoringini joriy qilish tavsiya etiladi.

Turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish orqali Zamin va Ugam-Chatqolda ekologik turizmni, Farg‘onada gastronomik va hunarmandchilik turizmini, Qoraqalpog‘istonda Orol dengizi atrofi cho‘l turizmini rivojlantirish kerak. Har bir hudud uchun alohida brend yaratib, xalqaro platformalarda faol targ‘ibot olib borish turist oqimini muvozanatli taqsimlashga yordam beradi. Davlat-xususiy sheriklikni kuchaytirish, investorlar uchun soliq imtiyozlari berish va infratuzilma loyihalarini xususiy sektor bilan birgalikda amalga oshirish esa bu jarayonni tezlashtiradi.

O‘zbekistonda turizm sohasi so‘nggi yillarda jadal sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. 2025-yilda xorijiy sayyohlar soni 11,7 millionga yetgan bo‘lsa-da, tadqiqotlarda yaqqol ko‘rinib turganidek, turist oqimi asosan Samarqand, Buxoro va Toshkent shahri kabi uchta markazga to‘plangan. Bu holat hududiy nomuvozanat, infratuzilmaning teng taqsimlanmaganligi, xizmat sifatining pastligi va turizm mahsulotlarining yetarli darajada diversifikatsiya qilinmaganligini ko‘rsatadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun hududlar bo‘yicha maxsus master-planlar ishlab chiqish, infratuzilmani modernizatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish va turizmni ekologik, gastronomik hamda tabiat turizmi yo‘nalishlarida diversifikatsiya qilish zarur. Natijada, turizm butun mamlakat bo‘ylab rivojlanib, O‘zbekistonni Markaziy Osiyoning yetakchi turizm markaziga aylantirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Airey, D., & Shackley, M. (1997). Tourism development in Uzbekistan. *Tourism Management*, 199–208.
2. Kantarci, K. (2007). Perceptions of foreign investors on the tourism market in Central Asia: Kyrgyzstan, Kazakhstan, Uzbekistan, Turkmenistan. *Tourism Management*, 820–829.
3. Safarov, B. Sh. (2015–2023). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli platformalarning O‘zbekiston turizmiga ta’siri (turli maqolalar).
4. Arabov, N., & Nasimov, D. (2024). Shaping the future of Uzbekistan’s tourism: An in-depth analysis of infrastructure influence and strategic planning. *Journal of Eastern European and Central Asian Research (JEECAR)*, 53–65.
5. Erkayeva B.A (2025). O‘zbekistonda tarixiy madaniy turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali*, 426-434.
6. UN Tourism (BMT Jahon turizm tashkiloti). (2025). Uzbekistan ranks among world’s fastest-growing tourism destinations in 2025.
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. (2026) <https://stat.uz/>.
8. O‘zbekiston Turizm va madaniy meros vazirligi rasmiy sayti. (2025–2026). Turizm statistikasi va hisobotlari. <https://uzbekistan.travel/> va <https://gov.uz/en/uzbektourism/>